



Toshmurodov Mirolim Ismoil o'g'li,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
e-mail: toshmurodovmirolim6@gmail.com

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN OILAVIY MUROSA TAMOYILLARINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.449>

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy qadriyatlar negizida shakllanayotgan oilaviy murosa tamoyillarining jamiyat barqarorligi va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlashdagi o'рни tahlil etilgan. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar hamda axloqiy qarashlari oilaviy totuvlik, o'zaro hurmat, bag'rikenglik va sabr-toqatni mustahkamllovchi omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrash, yoshlar ongiga murosa madaniyatini singdirish va oilaning ma'naviy immunitetini kuchaytirish zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Natijada, milliy qadriyatlar oilaviy murosa tamoyillarining poydevori va ijtimoiy barqarorlik kafolati sifatida baholangan.

Tayanch so'zlar: milliy qadriyatlar, oilaviy murosa, ma'naviy uyg'unlik, ijtimoiy barqarorlik, oilaviy totuvlik, ma'naviy madaniyat, urf-odat va an'analar, avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy qadriyatlar, jamiyat barqarorligi, murosa madaniyati.

Аннотация. В данной статье анализируется роль принципов семейного согласия, формирующихся на основе национальных ценностей, в обеспечении стабильности общества и духовной гармонии. В ней обычаи, традиции и нравственные взгляды узбекского народа, сформировавшиеся на протяжении веков, интерпретируются как фактор, укрепляющий семейную гармонию, взаимное уважение, толерантность и терпение. Также в статье на научной основе освещается необходимость сохранения национальных ценностей в условиях современной глобализации, привития культуры компромисса в сознании молодежи и укрепления духовного иммунитета семьи. В результате национальные ценности оценивались как основа принципов семейного согласия и гарантия социальной стабильности.

Ключевые слова: национальные ценности, семейное согласие, духовная гармония, социальная стабильность, семейное согласие, духовная культура, обычаи и традиции, межпоколенческая связь, духовные ценности, стабильность общества, культура компромисса.

Annotation. This article analyzes the role of the principles of family harmony, formed on the basis of national values, in ensuring the stability of society and spiritual harmony. In it, the customs, traditions, and moral views of the Uzbek people, formed over centuries, are interpreted as a factor strengthening family harmony, mutual respect, tolerance, and patience. The article also scientifically substantiates the need to preserve national values in the context of modern globalization, instill a culture of compromise in the minds of young people, and strengthen the spiritual immunity of the family. As a result, national values were assessed as the foundation of the principles of family harmony and a guarantee of social stability.

Keywords: national values, family harmony, spiritual harmony, social stability, family harmony, spiritual culture, customs and traditions, intergenerational connection, spiritual values, stability of society, culture of compromise.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalining yuksalishi, avvalo, oilaviy munosabatlarning mustahkamligi bilan belgilanadi. Shu bois, milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy murosa tamoyillarini rivojlantirish masalasi bugungi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Globallashuv sharoitida turli madaniy oqimlar, axborot makonidagi keskin o'zgarishlar va an'anaviy ijtimoiy institutlarning transformatsiyasi oilaning ichki muvozanatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy meros, urf-odat va qadriyatlar asosida shakllangan murosa madaniyati oilada nizolarni konstruktiv hal etish, insonlararo ishonchni mustahkamlash va avlodlar o'rtasida ma'naviy uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Fan va amaliyotning milliy hamda xalqaro taraqqiyot darajasiga nazar tashlaganda ko'plab tadqiqotlarda oilaviy kelishuv, ijtimoiy sarmoya, konfliktologiya va gender munosabatlarning yangi modellari e'tibor kuchayganini ko'rish mumkin. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli davlatlar ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda oilaning ma'naviy resurslarini davlat siyosati bilan uyg'unlashtiradi. O'zbekistonda esa milliy qadriyatlar, urf-odatlar va sharqona oilaviy an'analar jamiyatning ma'naviy asoslarini tashkil etuvchi strategik omil sifatida e'tirof etilmoqda. Shu ma'noda, mazkur mavzuning dolzarbligi oilaviy murosa tamoyillarining zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar fonida qayta talqin qilinishi zarurati, milliy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va oilaviy nizolarning profilaktik boshqaruvi bilan bevosita bog'liqdir.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad milliy qadriyatlarga tayangan holda oilada murosa, kelishuv va konstruktiv muloqot tamoyillarining mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Bugungi globallashuv, migratsiya jarayonlari, axborot oqimlarining keskin tezlashuvi va individualizmning kuchayishi oilaviy munosabatlarda yangi ziddiyatlar, kommunikativ uzilishlar va qadriyatlar kolliziyasini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, milliy merosga asoslangan murosa madaniyatini qayta tadqiq qilish, uni zamonaviy ijtimoiy sharoitga moslashtirish va

amaliy model sifatida taklif etish dolzarb ilmiy vazifa sanaladi. Maqolada milliy qadriyatlar tizimida oilaning tutgan o'rni, o'zaro hurmat, bag'rikenglik, ibo, insof, mas'uliyat, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi qadriyatlarning murosa jarayonidagi rolini chuqur tahlil qilish ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, sharqona tarbiya an'analari, avlodlararo muloqot madaniyati va oila institutining tarixiy funksiyalari zamonaviy muhitdagi o'zgarishlar bilan solishtirilib, milliy qadriyatlarga asoslangan murosa mexanizmlarining konseptual asoslari ishlab chiqiladi.

Maqsadning yana bir muhim yo'nalishi – oilaviy murosaning ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy muhitning sog'lomligi, yoshlar tarbiyasi va gender tenglikni ta'minlashdagi ahamiyatini aniqlashdir. Shu orqali maqola oilaviy siyosatni takomillashtirish, profilaktik choralarni kuchaytirish va ijtimoiy institutlar faoliyatini yangi metodologik asoslar bilan boyitishga xizmat qiladigan ilmiy xulosalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Natijada, tadqiqot milliy qadriyatlar asosida oilaviy murosa tamoyillarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab, ularni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi.

Oila insoniyat tarixining eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, u jamiyatning uzluksiz rivojlanishida, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila nafaqat biologik, balki ijtimoiy, ma'naviy va madaniy birlik sifatida inson hayotining poydevorini tashkil etadi. Shu bois, har qanday jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti, avvalo, oilaning mustahkamligiga, uning ichki muhitidagi totuvlik va ma'naviy uyg'unlik darajasiga bevosita bog'liqdir. "Oila – inson hayotida eng muqaddas va markaziy ijtimoiy muhit. U shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishi, avlodlar merosini davom ettirish va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim yagona asosdir. Bugungi kunda globallashuv, urbanizatsiya, texnologik taraqqiyot va individualizm kuchayishi oilaviy qadriyatlarga, murosaga tahdid solmoqda"¹. Shunday ekan, davlat va jamiyat uchun milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy murosa tamoyillarini aniqlash, targ'ib qilish va tatbiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

¹ Inoyatova S.J. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). fals.fan.fals.dokt. (PhD) ...diss. avtoref, 2025. – B. 3.

Oila inson shaxsiyati shakllanishi va tarbiyasining birlamchi maktabi hisoblanadi. Bola ilk bor mehr, g'amxo'rlik, hurmat va sadoqat kabi axloqiy qadriyatlarni oilada o'rganadi. Ota-onaning o'zaro munosabati, ularning farzandlarga bo'lgan munosabati, uydagi muhit jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, oila nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni ijtimoiy jihatdan shakllantiruvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston jamiyatida oila institutining o'rni davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan. "Oila – jamiyatning tayanchi" degan tamoyil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy siyosatning markazida turadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mustahkam oila – mustahkam jamiyatning garovidir"², ya'ni oila qadriyatlarini mustahkamlash orqali millatning ma'naviy salohiyatini oshirish mumkin. Shu bois, davlat siyosatida oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni sog'lom oila qurishga tayyorlash, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy murosa tamoyillarining ahamiyatini o'rganishda asosiy ilmiy muammo – globallashuv, axborot texnologiyalari va madaniy transformatsiyalar sharoitida an'anaviy oilaviy qadriyatlarning izchil saqlanib qolishi va ularning zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda qayta talqin qilinishi. Bugungi kunda oila institutining funksional o'zgarishi, yosh avlodning kommunikativ xulq-atvoridagi farqlar, individualizmning kuchayishi, gender rollarining o'zgarishi hamda ijtimoiy tarmoqlarning madaniy ongga ta'siri milliy murosa madaniyatining ayrim jihatlarini zaiflashtirmoqda. Natijada, oilaviy ziddiyatlarning ko'payishi, avlodlararo kelishmovchilik, emotsional uzoqlashuv va qadriyatlar iyerarxiyasining buzilishi kabi holatlar vujudga kelmoqda. Shu sabab, milliy qadriyatlarga asoslangan murosa tamoyillarini yangicha metodologiya asosida tadqiq qilish zarurati paydo bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtirgan holda oilaviy muloqot kelishuv va nizolarni konstruktiv boshqarishning barqaror modelini ishlab chiqishni talab etadi. Buning uchun, birinchidan, o'zbek xalqining tarixiy

merosi, etnopsixologik xususiyatlari va sharqona oila madaniyati ilmiy-nazariy jihatdan qayta tahlil qilinadi. Ikkinchidan, oilaviy murosa doir an'anaviy qadriyatlar: o'zaro hurmat, bag'rikenglik, sabr-toqat, mas'uliyat va haqgo'ylikning zamonaviy talqini ishlab chiqiladi. Uchinchidan, xalqaro tajriba asosida konfliktologik yondashuvlar, mediatsiya tamoyillari va oilaviy maslahat tizimining samarali mexanizmlari o'rganilib, milliy modelga moslashtiriladi. Natijada, ilmiy muammo yechimiga yo'naltirilgan ushbu yondashuv milliy qadriyatlar asosida oilaviy murosa madaniyatini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda yangi avlodning ma'naviy immunitetini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati, avvalo, u jamiyatning demografik, iqtisodiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashdagi rolda namoyon bo'ladi. Oila mehnat va iste'mol subyekti sifatida iqtisodiy hayotda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, u jamiyatda ijtimoiy nazorat mexanizmini amalga oshiradi – inson xulqini, axloqiy normalarga amal qilishini, ijtimoiy tartib va qadriyatlarni saqlab turishni ta'minlaydi. Oila institutining ahamiyati, shuningdek, milliy o'zlikni, madaniy merosni va urf-odatlarini avloddan avlodga uzatishda ham katta. "Har bir oila o'zining kichik madaniy muhitini shakllantirib, milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdiradi. Shu tariqa, oila ijtimoiy integratsiya va milliy birlikni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Jamiyatning eng muhim ijtimoiy tayanchi, insonparvarlik, ma'naviyat va barqarorlik manbaidir"³. Oilaning mustahkamligi – jamiyatning barqarorligi, ma'naviyatning yuksalishi va millatning kelajagi. Shuning uchun ham har bir davlat, har bir jamiyat oilani qo'llab-quvvatlash, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashni o'z taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rishi zarur.

Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichini tashkil etar ekan, u nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojlanish imkoniyatlarini, balki ma'naviy-axloqiy sohada ham chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. "Bugungi kunda axborot texnologiyalari, internet va ommaviy

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B. 299.

³ Орлова Е.М. Формирование культуры брачно-семейных отношений в условиях общества постмодерна: философский анализ: дисс. кан. фил. наук. – Курск, 2021. – С. 116.

madaniyatning keskin kirib kelishi natijasida milliy va oilaviy qadriyatlarga jiddiy tahdidlar yuzaga kelmoqda⁴. Ayniqsa, g'arbcha "individuallik", "erkinlik" va "zamonaviy turmush tarzi" g'oyalari o'zining tashqi jozibasi bilan ko'plab yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatib, an'anaviy oilaviy munosabatlarga begonalikni yuzaga keltirib chiqardi.

Globallashuvning salbiy jihatlaridan biri – ma'naviy relativizmning kuchayishi. Bu holat natijasida "har kimning o'z haqiqatiga ega bo'lishi" g'oyasi axloqiy me'yorlarni zaiflashtirib, oilaviy mas'uliyat, sadoqat va fidoyilik kabi qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Internet tarmoqlarida tarqalayotgan ma'naviy buzuvchi kontentlar, reklama va ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilinayotgan iste'molchilik madaniyati oilaning ichki birligiga, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan mehnat migratsiyasi ham oilaviy qadriyatlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. "Ota yoki onaning uzoq muddatli xorijiy mehnat safarlari oilaviy aloqalarning susayishiga, bolalar tarbiyasida bo'shliq paydo bo'lishiga olib keladi"⁵. Natijada, mehr, ishonch va mas'uliyat asosida shakllanadigan oilaviy rishtalar zaiflashadi. Globallashuv davrida milliy va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlar ongiga singdirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va ma'naviy immunitetni kuchaytirish jamiyatning dolzarb vazifasidir. Aks holda, oilaning zaiflashuvi jamiyatning ma'naviy ildizlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma'naviy tayanchi, uning tarixiy xotirasi va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi ma'naviy mezon hisoblanadi. "O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar va axloqiy tamoyillari oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, bag'rikenglik va sabr-toqat kabi fazilatlarini qaror toptirishda muhim o'rin tutadi"⁶. Shu bois, milliy qadriyatlar oilaviy murosa madaniyatining

poydevorini tashkil etadi. O'zbek oilasida murosa, avvalo, "katta-kichikka hurmat", "ayniqsa, onani ulug'lash", "qarindosh-urug'chilikni qadrlash" kabi qadimiy axloqiy tamoyillar asosida qaror topgan. Bu qadriyatlar oila a'zolari o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga, o'zaro tushunish va kechirimlilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodida, maqollar, hikmatlar, ertaklar va xalq qo'shiqlarida ham murosa va totuvlik g'oyalari keng targ'ib etilgan. "Yaxshilik bilan yomonlikning oxiri murosa", "Katta so'zi – oqil so'z" kabi xalq donishmandligi namunalarida murosaning hayotiy zarurat sifatidagi ahamiyati ifoda topgan.

Milliy qadriyatlarga tayanish oilaning ma'naviy immunitetini kuchaytiradi, g'arbcha individualizm ta'sirini kamaytiradi hamda oilaviy totuvlikni saqlashga zamin yaratadi. "Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni oilaviy tarbiya tizimiga chuqur singdirish muhimdir, chunki ular nafaqat axloqiy yo'l-yo'riq, balki ijtimoiy barqarorlik omili hamdir"⁷. Demak, milliy qadriyatlar oilaviy murosa madaniyatini mustahkamlashda nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyatdagi totuvlik, barqarorlik va ma'naviy uyg'unlikning kafolatidir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, quyidagi tushunchalarga milliy qadriyat, murosa, oilaviy barqarorlik to'g'risida qisqacha muallif nuqtayi-nazarini ilgari surishni o'rinli deb bilaman:

1. Milliy qadriyat – xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, diniy va madaniy an'analarini o'zida mujassam etgan, jamiyat a'zolarining ma'naviy yo'nalishini belgilovchi, ularni birlik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida birlashtiruvchi ijtimoiy-ma'naviy tizim. U millatning o'ziga xosligi, ijtimoiy xotirasi va ma'naviy barqarorligini ifodalovchi barqaror mezon sifatida namoyon bo'ladi.

2. Murosa – insonlar o'rtasidagi fikr, manfaat yoki hissiy qarama-qarshiliklarni o'zaro hurmat, bag'rikenglik va kechirimlilik asosida bartaraf etish jarayoni bo'lib, u ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlovchi axloqiy tamoyil sifatida amal qiladi. Murosa – mojarodan yiroq turish emas, balki haqiqatni kelishuv yo'li bilan anglash madaniyati.

3. Oilaviy barqarorlik – oila a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, mas'uliyat va ma'naviy uyg'unlikka asoslangan, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik

⁴ Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. – B. 152.

⁵ Bozorova R.Sh. Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – B. 44.

⁶ Мусурманова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – Б. 200.

⁷ Дементьева И.Ф. Первые годы брака. Проблемы становления молодой семьи. – Москва, 2001. – С. 69.

muvozanatni saqlab turuvchi holat. U nafaqat oilaning tinchligini, balki jamiyatdagi ijtimoiy totuvlikning ham poydevorini tashkil etadi. Axloqiy uyg'unlik – shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy me'yorlarning bir-biriga moslashgan holati bo'lib, u inson xatti-harakatlarida yaxlitlik, mas'uliyat va ijobiy ijtimoiy muhitni ta'minlovchi axloqiy muvofiqlik jarayonini anglatadi. Milliy qadriyatlar va zamonaviy demokratik qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik bugungi globallashuv va ijtimoiy modernizatsiya davrida jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma'naviy yo'nalishini belgilovchi omil bo'lsa, demokratik qadriyatlar inson huquqlari, erkinlik, tenglik, adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan ijtimoiy tuzumning poydevorini tashkil etadi. Ularning uyg'unlashuvi natijasida, jamiyatda milliy o'zlikni saqlagan holda ochiqlik, ishtirokchilik va adolat tamoyillari qaror topadi.

O'zbekiston misolida bu uyg'unlik, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi va demokratik islohotlar siyosati milliy qadriyatlarga tayanadi hamda ular zamonaviy boshqaruv, fuqarolik jamiyati va inson huquqlarini ta'minlash bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Masalan, o'zbek xalqining bag'rikenglik, kechirimlilik, o'zaro hurmat, adolat va hamjihatlikka asoslangan qadimiy qadriyatlari demokratik jamiyatning asosiy prinsiplariga: inson qadrini ulug'lash, fikr erkinligi, ijtimoiy hamkorlik va tolerantlik g'oyalarga uyg'un keladi.

Milliy qadriyatlar demokratik qadriyatlarni "mahalliyalashtiradi", ya'ni ularni jamiyat mentaliteti va ma'naviy tajribasiga mos shaklda qabul qilish imkonini beradi. Shu bois, demokratik g'oyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish – g'arbcha modelni ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki uni xalqning ma'naviy asoslariga moslashtirish. Bu jarayon orqali demokratik institutlar tabiiy tarzda ijtimoiy hayotga singadi, milliy o'zlik va zamonaviylik o'rtasida muvozanat vujudga keladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar demokratik qadriyatlarning amaliyotdagi samarasini oshiradi. Masalan, o'zbek xalqining "kattaga hurmat, kichikka izzat" tamoyili fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi; "mahalla" an'anasi esa jamoatchilik nazorati va o'zini o'zi boshqarish tamoyilining milliy shaklidir. Shu tariqa, milliy qadriyatlar demokratik tamoyillarga ijtimoiy tayanch yaratadi.

Milliy qadriyatlar bilan zamonaviy demokratik qadriyatlarning uyg'unligi – jamiyatda ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy birdamlik va siyosiy ishonchni mustahkamlovchi sintez. Bu uyg'unlik orqali milliy o'zlik yo'qolmaydi, balki yangicha demokratik mazmun bilan boyiydi. Shuning uchun, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qadriyatlarga tayangan demokratiya eng barqaror, insonparvar va ijtimoiy jihatdan adolatli taraqqiyot yo'lini ta'minlaydi. Murosa – insonlar o'rtasidagi fikr, manfaat yoki qadriyatlar to'qnashuvida kelishuv, bag'rikenglik va o'zaro hurmat asosida yechim topish madaniyati. Jamiyatda ma'naviy barqarorlik, totuvlik va axloqiy uyg'unlikni ta'minlashda murosaning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, avlodlararo bog'liqlik va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish jarayonida murosa insonparvarlik, sabr-toqat va adolat kabi yuksak fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiyasida murosa madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki hozirgi tezkor axborot asrida turli g'oyaviy oqimlar, madaniy ta'sirlar, individualistik tendensiyalar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda ota-ona va farzand o'rtasidagi murosaviy munosabat, o'zaro eshitish, tushunish va hurmat muhitini shakllantirish yoshlarni sog'lom ma'naviy yo'nalishda tarbiyalashning asosi bo'ladi. Ota-onaning mehrga asoslangan muloqoti, farzandga ishonch bildirish va uni mustaqil fikrga o'rgatish murosaning tarbiyaviy samaralaridir. Bunday muhitda voyaga yetgan yoshlar nafaqat intizomli, balki ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar bo'lib shakllanadi.

Murosa avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlovchi kuch sifatida ham namoyon bo'ladi. Keksalar hayotiy tajriba va donishmandlikni, yoshlar esa yangicha fikr va tashabbusni muomalaga olib kiradi. Ularning o'zaro muloqoti, murosali munosabati orqali jamiyatda uzluksiz ma'naviy meros almashinuvi yuz beradi. Avlodlar o'rtasidagi tafovutlar, qarashlar xilma-xilligi tabiiy hol bo'lsa-da, murosaviy yondashuv ularni ijtimoiy birlik va ma'naviy uzviylikka aylantiradi. Bu esa jamiyatda milliy qadriyatlarning saqlanishi va yangicha shaklda rivojlanishini ta'minlaydi.

Ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda ham murosaning o'rni beqiyosdir. "Jamiyatda turli dunyoqarash, diniy, siyosiy yoki ijtimoiy fikrlar

to'qnashuvi muqarrar. Bunday vaziyatda murosaga asoslangan muloqot madaniyati, bag'rikenglik va o'zaro hurmat ijtimoiy totuvlikni ta'minlaydi"⁸. Murosa – nizolarni kuch bilan emas, aql, sabr va mantiq bilan hal etish san'ati. U ma'naviy sog'lom muhitning muhim tayanchi bo'lib, insonlar o'rtasidagi ishonchni kuchaytiradi, ijtimoiy nizolarni kamaytiradi.

Yakuniy qism. Milliy qadriyatlarga asoslangan oilaviy murosa tamoyillarini ilmiy tahlil qilish, birinchidan, oila institutining barqarorligini ta'minlovchi konseptual modelni ishlab chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv o'zbek oilasining tarixiy-madaniy negizlarini zamonaviy konfliktologiya, ijtimoiy psixologiya va mediatsiya nazariyalari bilan uyg'unlashtirib, yangi ilmiy kategoriya va metodologik asoslarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot milliy qadriyatlarga xos bo'lgan murosa tamoyillarining ijtimoiy ong, axloqiy me'yor va kommunikativ xulq-atvorni shakllantirishdagi rolini aniqlab beradi. Bu esa oilaviy ziddiyatlarning kelib chiqish mexanizmlarini chuqurroq tushunish, avlodlararo aloqalarning psixologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash va

milliy oila modelining evolyutsiyasini tahlil qilish imkonini kengaytiradi.

Uchinchidan, milliy murosa tamoyillariga asoslangan yondashuv amaliyotga joriy etilganda oilaviy nizolarni erta aniqlash, profilaktika qilish va konstruktiv hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ayniqsa, mahalla tizimi, oilaviy maslahat markazlari va psixologik xizmatlar faoliyatida milliy qadriyatlarga mos mediatorlik tajribasini kuchaytirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, murosa tamoyillarining amaliy integratsiyasi yoshlar tarbiyasida ma'naviy immunitetni mustahkamlash, oilaviy mas'uliyat, hurmat, bag'rikenglik va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, yosh oilalarda barqaror psixologik muhit shakllantirish, ijtimoiy mojarolarni kamaytirish va sog'lom kommunikativ madaniyatni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy siyosat bilan uyg'unlashtirish, oila institutini mustahkamlash va jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni shakllantirishga amaliy hissa qo'shadi. Murosa tamoyillarining ilmiy asoslash orqali qayta talqin qilinishi ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali va madaniy merosni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

⁸ Равочкин Н.Н. Осмысление феномена семьи в истории социальной философии // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 1. – С. 2.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inoyatova S.J. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). fals.fan.fals.dokt. (PhD) ...diss. avtoref, 2025.
2. Орлова Е.М. Формирование культуры брачно-семейных отношений в условиях общества постмодерна: философский анализ: дисс. кан. фил. наук. – Курск, 2021. – С. 116.
3. Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. – B. 152.
4. Bozorova R.Sh. Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – B. 44.
5. Мусурманова О. Оила маънавияти – миллий гуруҳ. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – Б. 200.
6. Дементьева И.Ф. Первые годы брака. Проблемы становления молодой семьи. – Москва, 2001. – С. 69.
7. Равочкин Н.Н. Осмысление феномена семьи в истории социальной философии // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 1. – С. 2.